

## KOMIL XORAZMIY SHE'RIYATIDA IJTIMOY MASALALAR TALQINI BORASIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Dilnoza Xudayarova

Magistrant

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7602813>

Komil Xorazmiy millat jonkuyari sifatida xalqni ilm-ma'rifatli bo'lishga chorladi, milliy uyg'onishga da'vat etdi. U ijtimoiy-falsafiy mazmun bilan yo'g'rilgan she'riyati orqali jamiyatda bo'layotgan voqeliklarga o'z munosabatini bildirdi. Bu munosabat zamiriga millat taqdiriga befarq bo'lmaslik, donish ahli taqdiriga kuyunish kabi g'oyalar singdirilgan edi.

Hissiyot orqali tafakkurni uyg'otishni anglagan shoir, xalqning qalb ko'zini ochish, ularda atrofda bo'layotgan voqeliklarga faol munosabatda bo'lishga undadi. Shu yo'nalishda uning "Tama", "Fuzalo", "Juhalo" kabi ijtimoiy-falsafiy mazmundagi g'azallari yaratildi.

Hazrat Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonining yettinchi maqolotida: "Tama – gadolar ishi, tamagir esa gadoning o'zi"<sup>1</sup>, deya falsafiy-axloqiy qarashlarini ifodalagan. Yoki hazratning "Mahbub ul-qulub" asarining yetmishinchi tanbehida: "Tama ahli nokas, pastkash laimdir"<sup>2</sup>, degan edi.

Ma'lumki hamma zamonlarda ham tamagirlik insonni axloqiy tubanlashtiruvchi illat sifatida qoralanib kelingan. Navoiy asarlaridan ta'sirlanish Komil g'azallaridagi ijtimoiy-falsafiy qarashlarida ham ko'rinadi. Navoiy adabiy-estetik qarashlarini davom ettirgan holda Komil Xorazmiy "Tama" radifli g'azalini quyidagi misralar bilan boshlaydi.

Ey ko'ngul, zinhor qilma ahli davrondin tama,

Bor esa bu xasta jisminga agar jondin tama.

Komil e'tiroficha, ahli davrondin tama qilish joningni xatarga qo'yishdir. Misralar "Hayrat ul-abror"da ta'kidlangan "Xomtama dahrda ranj chekadi" fikrlarni esga soladi.

Komil fikrlarini davom ettirar ekan, xolis do'st yo'qligidan kuyinadi. Do'stdan yaxshiroq kishing bo'lmasa, undan tama qilma, deydi shoir:

Chunki yo'q ermish jahon ahlida xolis do'stlig',

Kimki ondin yaxshiroq yo'q, aylama ondin tama.<sup>3</sup>

Komil Xorazmiy tanqidiy qarashlarini davom qildiradi. Shoirlar asl sultonlik bu - qanoatda deydilar. Tamagir shoh esa, gadodan ham pastroq turadi. Raqibidan diyonatni istagan shoh gado qo'lidagi nonni tama qilgan kabidir.

Xoni vaslig'a raqibidin diyonat istamak,

<sup>1</sup> Alisher Navoiy. Xamsa. Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2019. 42-bet.

<sup>2</sup> Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021. 175-bet

<sup>3</sup> Komil Xorazmiy. Tanlangan she'rlar. – Toshkent: "Badiiy adabiyot nashriyoti", 1961. 11-bet (bundan keyingi she'riy parchalar ushbu kitobdan olinadi va qavs ichida sahifasi ko'rsatiladi).

Aylagan yanglig' gado ilkidag'i nondin tama.(11-bet).

Ijtimoiy mazmundagi qarashlar g'azal xotimasida tasavvufiy-falsafiy g'oyalar negizida beriladi:

Olam ichra gar bo'lay desang aziz-u arjumand,

Aylama Komil juz zilli subhondin tama. (11-bet).

Komil Xorazmiyning "Iyd o'ldi" nomli g'azali diniy e'tiqodni anglatuvchi, ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan uyg'unlikda tasvirlangan. G'azalda iyd, ro'za tutish kabi islomiy tushunchalarga munosabat emas, balki shu tushunchalar orqali jamiyatda bo'layotgan ijtimoiy tengsizlikni ko'rsatib berishga harakat qildi. Shuning uchun ro'za, iyd tushunchalari estetik unsur sifatida emas, shoirning ijtimoiy qarashlarini ochib berishda yordamchi vosita bo'lgan.

Shoir g'azalda jamiyatda mavjud ikki qatlam boy va kambag'al kishilar ahvolotini tasvirleydi.

O'tkardi ro'zani yebon ahli g'ino shakar,

Bechoralar saharlik-u iftori bir kuloj. (12-bet).

Xalq turmush tarzini, hayot notekisliklarini, ijtimoiy tengsizlikni bolalar hayoti vositasida beradi:

Atfoli ag'niyo olib iydona g'a tillo,

Qashshoqlar bolasi diram tobmay oldi koj. (12-bet).

Tanqidiy fikrlari yakunida, xalqning mushkulini yengil qilishni o'ylaydi va shoh mamlakatni adl ila boshqarishini Allohdan so'raydi:

Yo rab, shahim hukumatini mustadom tut,

Avrangi adl uzra maqom ayla taxt-u toj. (12-bet).

G'azalda xalqning og'ir, ayancli turmush tarzining real tasviri keltiriladi.

"Har soat" radifli g'azali "Hasbi hol" shaklida yozilgan. Bilamizki, Komil hayot notekisliklarida, past-balandliklarida qiynaldi. Umrining oxirida og'ir dardga chalinishi bu davrondan ko'rgan zulmlarining ta'siri, desak mubolag'a bo'lmaydi. Boshdan o'tkazilgan g'am-tashvishlar shoir qalbini jarohatladi. G'amdan iborat xirmon yuki she'rga to'kildi:

Menga zulmin kam etmas gunbazi davvor har soat,

To'kar g'am xirmanin boshimg'a yuz xirvor har soat. (12-bet).

Ko'ngli ozorlangan shoir o'z ahvolotini xalqona ohangda tasvirleydi:

Kima bir xizmat etsam, aylagay o'rnig'a yuz tuhmat,

Asalg'a, zahr-u gul o'rnig'a sanchar xor har soat. (12-bet).

Baytda an'anaviy shaklda ishlatilgan tashbehdan ko'ra, hikmatli so'z darajasiga chiqqan tasvir obrazli. Komil dunyo va hayot hodisalariga munosabat bildirishda murosasiz shoir edi:

Bo'lib begonavash yillar yomonlig' oshkor etti,  
Kima oshnolig' ayladim izhor har soat. (12-bet).

Shoir zamonasidagi axloqiy tuban kimsalarning munosabatini eslash asnosida falsafiy qarashlarini jonlantiradi. Ya'ni har daqiqa, har soat ko'ngli fig'on qilayotgan shoirga yillar ham uning nazdida begonavash bo'lib qoldi.

Komil g'azallarida ham soqiyga murojaat qilish o'rinlari ko'plab uchraydi. Quyidagi baytda esa soqiy Alloh ma'nosini beradi:

Jahon past-u balandi, soqiyo, qon qildi ko'nglumni,  
Mani masti mudom et, qo'ymayin hushyor har soat. (12-bet).

Jahon past-u balandidan qon bo'lgan ko'ngulga yagona malham bu - dilni ilohiy nur bilan yoritish, hushyor qilish.

Komil ijodida falak, zamon, vaqt, yil, soat tushunchalariga yangicha yondashuv asosida dunyoning tub mohiyatini, uning holatini ochib berishga harakat qiladi. "Shohi falak"dan lutf kutayotgan shoir shunday yozadi:

Bo'lur har soatim bir kun, kunim yuz yil, yilim ming oy,  
Menga lutf etmasa, shohi falak miqdor har soat. (12-bet).

Ijodiy ta'sirlanishning mahsuli bo'lgan ushbu g'azal maqta'sida Ogahiyga monand fikrlar xulosa bo'lgan:

Ogahiyda:

Qilib jahd, Ogahiy, shah xizmatida arjumand ulkim,  
Yomon yuz margdin olamda chekmak or bir soat.<sup>4</sup>

Komilda:

Hamisha uz tama shohi jahondin o'Zgadin, Komil,  
Desang bo'lmay jahon ichra zalil-u xor har soat. (12-bet).

Shah xizmatida aziz bo'lishga jahd qilish, olamda bir soat uyatga qolish yuz o'limdan ham yomon, deydi Ogahiy. Komil ham shohdan, hammadan tamani uzish lozimligini ta'kidlaydi. Tamani uzmaslik esa xorlikka yetaklashi uqtiriladi.

Komilning "Bir soat" radifli g'azali Ogahiyning "Har soat" radifli g'azaliga tatabbu' tarzida yozilgan. Shuni alohida qayd etish lozimki, Komil gumbazi davvorning zulmidan shikoyat qilishda Ogahiyga hamohang misralar bitgan bo'lsa-da, uning g'azali Ogahiydan ijodiy ta'sirlanishgina bo'lib qolmay, shoirning o'z ahvoloti bayoni va zamonasidan chekayotgan iztiroblari mahsulidir.

Komil she'riyatida ijtimoiy-falsafiy qarashlari aks etgan, yuksak ifoda uslublaridan foydalanilgan holda tasvirlangan o'rinlar juda ko'p. Ba'zan bu, badiiy maqsaddan ko'ra, real

<sup>4</sup> Ogahiy. Ta'vazu-l-oshiqin. Toshkent: "Mumtoz so'z" nashriyoti, 2014. 73-bet.

voqelikdan olingan betakror tashbehtar fikr va g'oyani aniq ifodalashda asosiy estetik ta'sir ko'rsatish vositasi bo'lib xizmat qiladi:

Zoyl etmak istasang o'z din mazallat qoni' o'l,

Olmas ul chirkingni mundin o'zga sobun, ey ko'ngul. (4-bet).

Komil zamon va zamon ahlidan zulm ko'rgan bo'lsa ham, nodon, johil kimsalarga munosabatda qat'iyatli, mard, g'ururli inson qiyofasida gavdalanadi:

Iltimos etma olardin bir ko'nakni zinhor,

Sindirur gar bersa ham o'lgan badang'a jon, so'zing. (4-bet).

Yana bir o'rinda:

Mulozim pesha bo'lma joh uchun har pastfitratga,

Tavakkal shohrohida takupo' ayla mardona. (20-bet).

Komil g'azallarida ijtimoiy norozilik kayfiyatini ifodalash bilan cheklanmay, umidbaxshlik kabi nozik tuyg'ularni ham ifodalagan:

Tafa'ul aylar eding, ey ko'ngul, qilib niyat,

Ki raf' bo'lg'usi deb toza yilda naxsiyat.

Yuqorida keltirilgan baytda toza yil istiorasi aslida Xorazm shevasida keng qo'llaniladi. Bu istiora nafaqat lirik qahramon ko'nglidagi maqsadlarini ifodalashga xizmat qilgan, balki butun bir millatning toza yildan kutayotgan orzulari ifodasi hamdir.

Xullas, Komil jamiyat hayotida bo'layotgan har bir hodisaga loqayd bo'lmadi. Shu zaminning kelajak va taqdiri uchun qayg'uruvchi inson sifatida yashadi. Millat ma'naviyati va ijtimoiy ongini yuksaltiruvchi she'riyati va faoliyati orqali xalqqa xizmat qildi.

### References:

1. Alisher Navoiy. Xamsa. Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2019.
2. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Toshkent : G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021.
3. Ogahiy. Ta'vizu-l-oshiqin. Toshkent: "Mumtoz so'z" nashriyoti, 2014.
4. Komil Xorazmiy. Tanlangan she'rlar. – Toshkent: "Badiiy adabiyot nashriyoti", 1961.